



UDK:811.512

Ibroximjon USAROV,

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, f.f.n

E-mail: ibrohimusarov11@gmail.com

O‘zMU professori I.Siddikova taqrizi asosida

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA STILISTIK BIRLIKLAR TIPOLOGIYASI

Annotsatsiya

Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi stilistik birliklar qiyosiy-tipologik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Stilistik birliklar leksik, sintaktik va fonetik darajalarda tasniflanib, ularning diskursdagi pragmatik vazifalari ko‘rib chiqiladi. Korpus materiallari asosida ingliz stilistikasida abstrakt metaforalar va ironiya, o‘zbek stilistikasida esa milliy-madaniy metaforalar va paremiologik birliklar ustuvorligi aniqlanadi. Olingan natijalar qiyosiy stilistika va tarjimashunoslik uchun nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: stilistik birlik, qiyosiy stilistika, metafora, diskurs, lingvomadaniyatshunoslik, paremiologiya.

TYPOLOGY OF STYLISTIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN

Annotation

The article provides a comparative and linguocultural analysis of stylistic units in English and Uzbek. Stylistic units are classified at lexical, syntactic, and phonetic levels, and their pragmatic functions in discourse are examined. Corpus-based data reveal the dominance of abstract metaphors and irony in English, while national-cultural metaphors and paremiological units prevail in Uzbek. The results contribute to comparative stylistics and translation studies.

Keywords: stylistic units, comparative stylistics, metaphor, discourse, linguoculturology, paremiology.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИКИ

Аннотация

В статье представлен сопоставительно-типологический и лингвокультурологический анализ стилистических единиц английского и узбекского языков. Стилистические единицы классифицируются на лексическом, синтаксическом и фонетическом уровнях, а также рассматриваются их прагматические функции в дискурсе. Корпусный анализ показал преобладание абстрактных метафор и иронии в английском языке и национально-культурных метафор и паремиологических единиц в узбекском. Результаты важны для сопоставительной стилистики и переводоведения.

Ключевые слова: стилистические единицы, сопоставительная стилистика, метафора, дискурс, лингвокультурология, паремиология.

Kirish. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda til hodisalari faqatgina aloqa vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, dunyoqarashi, madaniy qadriyatlarini hamda jamiyatning ijtimoiy-psixologik taraqqiyotini aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida talqin etilmoqda. Til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat munosabatlari XXI asr tilshunosligining markaziy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, nutqning ta’sirchanligi, obrazlilik, emotsional-ekspressiv kuchini yuzaga chiqaruvchi stilistik birliklar bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan stilistik vositalar orqali muallifning subyektiv munosabati, bahosi, kommunikativ niyati va estetik pozitsiyasi ifodalanadi.

Stilistika til tizimining eng harakatchan, dinamik va funksional qatlamlaridan biri bo‘lib, u nutqiy muloqotda til birliklarining nafaqat nominativ, balki ekspressiv, baholovchi, ta’sirchan va estetik vazifalarini ham o‘rganadi. Stilistik birliklar nutqning badiiy, publitsistik, og‘zaki, ilmiy va rasmiy-uslubiy qatlamlarida turlicha namoyon bo‘lib, muloqot jarayonining kommunikativ samaradorligini ta’minlaydi. Shu bois stilistik birliklarni o‘rganish tilshunoslikning funksional yo‘nalishlari, xususan, pragmalingvistika, diskursshunoslik, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘liq holda olib borilmoqda.

Har bir milliy til o‘zining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilishi, urf-odati, mentaliteti va madaniy qadriyatlarini bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli stilistik birliklar, bir tomondan, umumtilshunoslik qonuniyatlariga bo‘ysunsa, ikkinchi tomondan, muayyan xalqning milliy dunyoqarashi, madaniy tafakkuri, ijtimoiy tajribasi va estetik idealini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Bu esa stilistik birliklarning universallik va milliylik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganishni talab etadi.

Ingliz va o‘zbek tillari turli tipologik guruhlarga mansub bo‘lib, ingliz tili analitik tilga, o‘zbek tili esa agglutinativ til turkumiga kiradi. Ushbu tipologik farq grammatik tuzilishda, so‘z yasashida, sintaktik ifoda vositalarida va stilistik birliklarning yuzaga chiqish mexanizmlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, ingliz tilida stilistik effekt ko‘pincha so‘z tartibi, artikl tizimi, yordamchi fe‘llar, intonatsiya va leksik tanlov orqali yuzaga chiqsa, o‘zbek tilida esa affiksatsiya, so‘z yasash modellari, takrorlash, shakl yasovchi qo‘shimchalar, fe‘lning zamon-mayl shakllari vositasida yaratiladi. Bu holat stilistik birliklarni qiyosiy-tipologik asosda o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda stilistika fanida antropotsentrik yondashuv ustuvor yo‘nalishga aylandi. Endilikda stilistik hodisalar til tizimi doirasida emas, balki nutq egasi, adresat,

kommunikativ vaziyat, madaniy kontekst va pragmatik omillar bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etilmoqda. Jumladan, D. Ashurova, A. Mamajonov, N. Mahmudov, U. Tursunov kabi o'zbek olimlari ishlarida stilistik birliklarning funksional-pragmatik xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Xorijiy tilshunoslikda esa G. Lakoff, R. Langacker, N. Alefirenko, M. Halliday, I. Galperin, V. Kukhareenko kabi olimlarning tadqiqotlarida stilistik birliklar kognitiv va funksional yondashuv asosida o'rganilgan.

Kognitiv tilshunoslikda stilistik birliklar inson ongidagi konseptual tizimlar, metaforik modellar va assosiativ tafakkur bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Masalan, G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, ko'plab stilistik birliklar insonning abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali idrok etish mexanizmiga asoslanadi. Bu jihat ingliz va o'zbek tillaridagi metafora, metonimiya, kinoya, irooniya kabi stilistik vositalarni kognitiv asosda qiyoslab o'rganish imkonini beradi.

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan esa stilistik birliklar milliy madaniyat, an'ana, urf-odat va mentalitetning til birliklarida aks etgan ko'rinishi sifatida qaraladi. Ayniqsa, paremiologik birliklar, frazeologizmlar, emotsional-ekspressiv leksika, murojaat birliklari, baholovchi so'zlar milliy madaniyatning bevosita ifodalashlari hisoblanadi. Ingliz tilidagi gentleman, privacy, comfort, tradition kabi birliklar ingliz xalqining madaniy qadriyatlarini ifodalasa, o'zbek tilidagi or, andisha, baraka, qadr-qimmat, mehmonnavozlik singari birliklar o'zbek xalqining milliy mentalitetini yoritib beradi. Shu bois stilistik birliklar tipologiyasini lingvomadaniy asosda tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy lingvistika doirasida stilistik birliklar diskurs darajasida ham faol o'rganilmoqda. Diskursshunoslikda stilistik birliklar matndan tashqari omillar - kommunikativ vaziyat, ishtirokchilar, pragmatik niyat, ijtimoiy kontekst bilan uyg'un holda tahlil qilinadi. Badiiy diskursda stilistik birliklar nafaqat estetik vazifani, balki qahramonning psixologik holatini ochish, muallif pozitsiyasini ifodalash, o'quvchiga emotsional ta'sir ko'rsatish kabi muhim funksiyalarni ham bajaradi. Ingliz va o'zbek badiiy diskursida stilistik birliklarning qo'llanishi turli madaniy me'yorlar asosida shakllangan bo'lib, ularning qiyosiy tahlili ikki xalq badiiy tafakkuri o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, stilistik birliklar tipologiyasi masalasi tarjimashunoslik bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki stilistik birliklar badiiy tarjimada eng murakkab va bahsli masalalardan biri hisoblanadi. Ingliz tilidagi stilistik birliklarni o'zbek tiliga o'girish jarayonida ularning semantik, pragmatik va emotsional komponentlarini saqlash tarjimon mahoratini talab qiladi. Ayrim hollarda stilistik birliklar to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmay, madaniy moslashtirish yoki kompensatsiya yo'li bilan beriladi. Bu esa stilistik birliklarning qiyosiy-tipologik tavsifini ishlab chiqishni yanada zarur qiladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi ingliz va o'zbek tillaridagi stilistik birliklarning umumiy va milliy xususiyatlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida aniqlash, ularning tuzilish, semantik, pragmatik va funksional jihatlarini tizimli tavsiflash zaruratidan kelib chiqadi. Hozirga qadar ingliz va o'zbek tillaridagi stilistik birliklar alohida-alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularni yagona tipologik mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilish masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - ingliz va o'zbek tillaridagi stilistik birliklar tipologiyasini ishlab chiqish, ularning strukturaviy, semantik va funksional o'xshash hamda

farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

stilistik birlik tushunchasining nazariy asoslarini yoritish;

ingliz va o'zbek tillaridagi asosiy stilistik birliklarni tasniflash;

ularning badiiy diskursdagi funksiyalarini aniqlash;

milliy-madaniy omillarning stilistik birliklarga ta'sirini ko'rsatish;

stilistik birliklarning qiyosiy-tipologik xususiyatlarini tizimli tahlil qilish.

Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek stilistikasi, qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik hamda tarjimashunoslik fanlari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Olingan xulosalar stilistika bo'yicha maxsus kurslar, qiyosiy tilshunoslik fanlari, badiiy matn tahlili hamda tarjima amaliyotida samarali foydalanilishi mumkin.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi stilistik birliklarni ko'p qatlamli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilish maqsad qilingan. Shu sababli tadqiqot jarayonida qiyosiy-lingvistik, kognitiv-stilistik, diskursiv, korpus lingvistikasi hamda statistik metodlar o'zaro integratsiyada qo'llanildi. Bu uslub stilistik birliklarning nafaqat struktura va ma'nosini, balki ularning real nutqdagi funksional, pragmatik va madaniy yuklamasini ham ochib berish imkonini yaratdi.

1. Qiyosiy-lingvistik metod

Mazkur metod ingliz va o'zbek tillaridagi stilistik birliklarning strukturaviy, semantik va funksional o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy yondashuv asosida metafora, metonimiya, ironiya, epitet, ritorik savol, parallelizm kabi vositalarning ikki tildagi ifodalanish mexanizmlari solishtirildi.

Bu metod V.G. Gak, V.N. Komissarov, I.V. Arnold, D.

Ashurova va A. Mamajonovlarning qiyosiy stilistika bo'yicha ishlari metodologiyasiga tayangan holda amalga oshirildi. Qiyosiy tahlil natijasida til tipologiyasi (analitik-agglutinativ) stilistik birliklarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritildi.

2. Kognitiv-stilistik tahlil

Metafora va metonimiya kabi markaziy stilistik vositalar G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi asosida tahlil qilindi. Ushbu metod orqali stilistik birliklarning inson tafakkuri, konseptual sistemasi va mental modellar bilan bog'liqligi ochib berildi.

Xususan, ingliz tilidagi Time is money, Life is a journey kabi metaforalarning ratsional konseptual makon bilan bog'liqligi, o'zbek tilidagi ko'ngil ko'zi, yurak bag'ri, ko'ngli tog'dek kabi metaforalarning esa emotsional va axloqiy konseptlarga asoslanishi kognitiv asosda izohlandi. Bu yondashuv P. Stockwell, N. Alefirenko, E. Kubryakova, I. Usarovning kognitiv-stilistik qarashlariga tayangandi.

3. Diskursiv va kontekstual tahlil

Stilistik birliklarning nutqdagi real funksiyasi ularning alohida birlik sifatidagi emas, balki diskurs tarkibidagi o'rni orqali baholandi. Shu sababli badiiy, publitsistik va og'zaki nutq diskurslarida stilistik birliklarning pragmatik vazifasi, baholovchanlik, emotsional fon yaratish hamda adresatga ta'siri o'rganildi.

Bu yondashuv M. Hallidayning funksional grammatika nazariyasi, N. Faircloughning diskurs tahlili modeli hamda Hatim va Masonning tarjima diskursi haqidagi qarashlariga tayandi. Ingliz va o'zbek badiiy diskursida stilistik birliklarning kommunikativ strategiya sifatidagi roli aniq misollar orqali isbotlandi.

4. Korpus lingvistikasi yondashuvi

Empirik material sifatida COCA, BNC, O'zbek Milliy Korpusi va UzWaC ma'lumotlariga tayangan holda stilistik birliklarning real nutqdagi qo'llanish chastotasi aniqlandi.

Masalan, ingliz tilida irony, alliteration, rhetorical question birliklarining foydalanish chastotasi COCA orqali aniqlanib, o'zbek tilida esa paremiologik birliklar va metaforalar UzWaC hamda O'zbek Milliy Korpusi orqali tahlil qilindi. Ushbu yondashuv stilistik birliklarning nazariy tasnifini empirik material bilan mustahkamlash imkonini berdi.

5. Tavsifiy va statistik metodlar

Olingan natijalar tavsifiy usulda izohlab berildi va statistik metod asosida foiz ko'rsatkichlarida umumlashtirildi.

Daraja	Asosiy birliklar
Leksik	metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, ironya, oksyumoron
Sintaktik	parallelizm, inversiya, ritorik savol, ellipsis, gradatsiya
Fonetik	alliteratsiya, assonans, onomatopeya, ritmik takror

Bu birliklar universal xarakterga ega bo'lsa-da, ularning stilistik qiymati va madaniy yuklamasi ikki tilda turlicha namoyon bo'lishi aniqlandi (Arnold, 2002; Ashurova, 2013).

Biriklik	Tavsif	Misol
Alliteration	Undosh tovushlar takrori	Sweet summer sun
Personification	Jonsizga jon baxsh etish	The wind whispered softly
Irony	Yashirin baholovchi ma'no	Great! Another rainy day!
Phrasal verbs	Ekspressivlik	give up, pull through

Ingliz stilistikasining muhim belgisi — abstrakt va universal metaforalarning ustunligi:

Time is money, Life is a journey.

Bu holat ingliz tafakkurida ratsional konseptlashuv yetakchi ekanini ko'rsatadi (Lakoff & Johnson, 1980).

Biriklik	Tavsif	Misol
Milliy metafora	Madaniy konseptlarga tayangan	ko'ngil ko'zi, yurak bag'ri
Paremiologiya	Xalq tajribasi ifodasi	Yaxshilik qil, dengizga tashla
Tashbeh	O'xshatish	qaldirg'ochdek chaqqon
Morfostilistika	Qo'shimcha orqali ta'sir	ketaverib, oqarib ketdi

O'zbek stilistikasida ko'ngil, yurak, vijdon, or-nomus, baraka kabi konseptlar nutq obrazlilikini ta'minlovchi asosiy birliklar hisoblanadi (Mahmudov, 2009; Mamajonov, 2018; Usarov, 2023).

4. Qiyosiy-tipologik tahlil

Mezon	Ingliz tili	O'zbek tili
Til tipi	Analitik	Agglutinativ
Metafora	Abstrakt	Milliy-madaniy
Ironya	Ochiq	Bilvosita
Paremiologiya	Cheklangan	Juda faol
Sintaktika	Ritorik	Takror, parallelizm
Fonetik vosita	Alliteratsiya	Ritmik ohang

Muhokama. Natijalar shuni ko'rsatdiki, stilistik birliklar universallik va milliylikning dialektik uyg'unligini namoyon etadi. Metafora, metonimiya, epitet, ironya, parallelizm va alliteratsiya kabi vositalar ko'pgina tillar uchun universal bo'lsa-da, ularning mazmuniy yuklamasi, baholovchanligi va emotsional-fonetik ta'siri har bir til va madaniyatda o'ziga xos tarzda shakllanadi. Shu jihatdan ingliz va o'zbek tillaridagi stilistik birliklar nom jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ularning konseptual va madaniy asoslari sezilarli darajada farqlanadi.

Ingliz tilida stilistika ko'proq individualizm, ratsional tafakkur va mantiqiy izchillik bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida emotsional-ekspressivlik, axloqiy qadriyatlar va jamoaviy tafakkur ustuvorlik qiladi. Sintaktik vositalar ingliz tilida asosan ritorik va argumentativ ta'sirga xizmat qilsa, o'zbek

Bu stilistik birliklarning qatlamlar bo'yicha (leksik, sintaktik, fonetik) taqsimlanish dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot materiali sifatida 150 ta ingliz badiiy matni, 120 ta o'zbek badiiy asari hamda 60 ta publitsistik matn tanlab olindi. Materiallar XX–XXI asr adabiyoti doirasini qamrab oldi.

Natijalar.

1. Stilistik birliklarning umumiy tipologiyasi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz va o'zbek tillarida stilistik birliklar uch asosiy darajada shakllanadi: leksik, sintaktik va fonetik.

2. Ingliz tiliga xos stilistik birliklar

Ingliz tilida stilistik vositalarning aksariyati sintaktik va fonetik darajada faolligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, quyidagi birliklarning yuqori chastotasi kuzatildi:

3. O'zbek tiliga xos stilistik birliklar

O'zbek tilida stilistika milliy-madaniy konseptlar asosidagi obrazlilik bilan xarakterlanadi:

tilida takror, parallelizm va ohangdor qurilmalar nutq musiqiyiligi hamda xalqona ifodani ta'minlaydi. O'zbek tilining agglutinativ tuzilishi morfostilistik vositalarning faol qo'llanishiga imkon yaratadi.

Ushbu farqlar tarjima jarayonida stilistik ekvivalentlikni ta'minlashni murakkablashtiradi. Ayniqsa, ironya, paremiologiya va milliy metaforalarni tarjima qilishda leksik emas, balki pragmatik va madaniy moslik muhim ahamiyat kasb etadi. Keskin ingliz ironiyasi o'zbek tilida ko'pincha bilvosita va yumshoq shaklda beriladi, ayrim milliy birliklar esa funksional kompensatsiya yo'li bilan tarjima qilinadi. Shuning uchun stilistik birliklarning qiyosiy-tipologik tahlili tarjimonning stilistik, pragmatik va lingvomadaniy sezgirligini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida stilistik birliklar leksik, sintaktik va fonetik qatlamlarda shakllangan yaxlit tizimni tashkil etishini hamda ularning emotsional-ekspressivlik, obrazlilik va ta'sirchanlikni ta'minlashda yetakchi vosita ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ingliz stilistikasida abstrakt metaforalar, ironiya va ritorik qurilmalar ustuvor bo'lsa, o'zbek stilistikasida milliy-madaniy metaforalar, paremiologik birliklar va morfostilistik imkoniyatlar yetakchi o'rin egallashi aniqlandi.

Stilistik birliklarning semantik va pragmatik yuklamasi milliy-madaniy, ijtimoiy va mental omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu holat tarjima jarayonida stilistik ekvivalentlikni ta'minlashni murakkablashtiradi. Olingan natijalar qiyosiy stilistika, lingvomadaniyatshunoslik, diskursshunoslik va tarjimashunoslik uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Ashurova D.U. Stylistics of the English Language. Tashkent, 2013.
2. Mamajonov A. Hozirgi o'zbek tilining stilistikasi. Tashkent, 2018.
3. Mahmudov N. Til va tafakkur. Tashkent, 2009.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
5. Stockwell P. Cognitive Poetics. London: Routledge, 2002.
6. Alefirenko N. Lingvokulturologiya: Tsenosti i smysly. Moscow, 2010.
7. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. London, 1978.
8. Hatim B., Mason I. The Translator as Communicator. London, 1997.
9. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, 2011.
10. Arnold I.V. Stylistics of Modern English. Moscow, 2002.
11. Komissarov V.N. Современное переводоведение. Moscow, 1999.
12. Usarov I. Neostilistik yondashuvlar. Tashkent, 2025.
13. Usarov I. Kognitiv stilistika va diskurs. Tashkent, 2023.
14. Davies, M. Corpus of Contemporary American English (COCA): 1990 present. Provo, Utah: Brigham Young University, 2008–2024. Electronic corpus.
15. British National Corpus (BNC). Oxford: Oxford University Press & British Library, 1991–1994. Electronic corpus.
16. O'zbek Milliy Korpusi. Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi Tashkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2018–2024. Elektron korpus.
17. Nurk, A., & Sharoff, S. UzWaC – Uzbek Web Corpus. Leeds: University of Leeds, 2014–2024. Electronic corpus.